



MAKTABGACHA 6-7 YOSHLI BOLALARNING TAYANCH KOMPETENSIYALARINI ERTAKLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Seitmuratova Venera Jumamuratovna

TAFU Pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi

veneraseitmuratova7907@gmail.com

Ashurova Marhabo Eshonqul qizi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14910022>

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ertaklar orqali talim-tarbiya berishda kompetensiyaviy yondashuv, 6-7 yoshdagi bolalarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakillantirib borishda ertaklarning ahamiyati haqida ma'lumot berilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ertaklar orqali ijtimoiy ongini rivojlantirish, bolaning shaxsiy xususiyatlarini shakillantirib borish, oilada ota-ona va kattalar, do'stlari bilan yaxshi munosabatda bo'lish, dunyo haqida dastlabki bilimlarga ega bo'lish va shaxsiy "Men" sifatlarini rivojlantirish kompetensiyalari haqida aytilgan. Ertaklar bolalar uchun faqat qiziqarli hikoyalar bo'lib qolmasdan, ularning endi rivojlanib kelayotgan tasavvurida ijodiy tafakkurini ham rivojlantirib, imkoniyatlarini kengaytiradigan, har taraflama tarbiya beradigan vosita sifatida ham zarur ahamiyatga ega. Maqolada tatqiqot davomida ertaklar asosida olib borilgan amaliy mashqlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning kompetensiyalarini rivojlantirishda ijobiy ta'sir ko'rsatishi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Ilq qadam, shaxs, ertak, kompetensiya, kompetensiyaviy yondashish, ijtimoiy ong, maktabgacha yosh.

Аннотация: В статье представлена информация о важности использования сказок для воспитания и обучения детей дошкольного возраста с помощью компетентностного подхода, развития базовых компетенций у детей 6-7 лет и формирования компетенций в различных областях развития. Рассматривается значение сказок для развития социальной осознанности у дошкольников, формирования личных качеств ребенка, установления хороших отношений с родителями, взрослыми и сверстниками, получения начальных знаний о мире и развития личностных качеств "Я". Сказки для детей представляют собой не только интересные истории, но и важный инструмент, способствующий развитию творческого мышления, расширяющий возможности и всесторонне развивающий ребенка. В статье раскрывается, как практические занятия, основанные на сказках, положительно влияют на развитие компетенций у детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: Первый шаг, личность, сказка, компетентность, компетентностный подход, общественное сознание, дошкольный возраст.

Annotation: The article provides information on the importance of using fairy tales in educating and raising preschool children through a competence-based approach, the development of core competencies in 6-7-year-old children, and the formation of competencies in various areas of development. It discusses the role of fairy tales in developing the social consciousness of preschool children, shaping their personal qualities, fostering good relationships with parents, adults, and friends, acquiring basic knowledge about the world, and developing personal "I" qualities. Fairy tales, not only as interesting stories but also as an essential tool for fostering creativity, broadening children's abilities, and providing holistic education, have significant importance. The article also reveals how practical exercises based on fairy tales positively influence the development of competencies in preschool children.

Keywords: First step, personality, story, competence, competence-based approach, social consciousness, preschool age.

Kirish

Ertaklar bizga ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelgan, xalqning donolik tafakkuridan ijod bo'lgan, bebaho so'z marjonlariga boy og'zaki ijod asarlari bo'lib, ular bugungi kungacha o'zining tarbiyaviy



xususiyati bilan kichkintoylarni tarbiyalashda mo'jizaviy tarbiya quroli sifatida xizmat qilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishda, nutqini o'stirishda, ravon so'zlashda, tasavvurini boyitishda, ijodiy qobiliyatini, tafakkurini rivojlantirishda, mustaqil va kreativ fikrlashda yanada ularda endi shakllanib kelayotgan tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda bolalar ertaklaridan foydalanish zarur ahamiyatga ega. 5-7 yosh davri bolalar so'z boyligi o'sishining eng choqqisiga chiqqan davri bo'lib, bu paytda bolalar mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi, atrofidagi insonlar bilan erkin muloqot qilishlari, taqlid qilish va so'zlarni tezda eslab qolish qobiliyatlari yuqori darajada rivojlanadi.

Ertak ahloqiy tarbiya berishning eng kuchli vositasi hisoblanadi. Ertak yaxshilik va adolat kuchiga ishonishni o'rgatadi. Obrazlarning soddaligiga va syujetning oddiyligiga qaramay, ertaklar eng muhim narsalar haqida hikoya qiladi: ular hayot ma'nosi, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash haqida so'z yuritadi, ularda axloqiy ma'no mujassamdir, shuning uchun ularning tarbiyaviy ahamiyati juda kattadir [1]. Shuningdek ertak orqali bolada ijtimoiy ong, dunyo haqidagi tushunchalarini shakllantirishga, kattalarni hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatishni o'rganadi.

Ertaklar 6-7 yoshli bolalarga o'z kelajagiga yangi g'oyalarni kashf etish kabi ajoyib qobiliyatlarni rivojlantirish orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirish masalalari hozirgi vaqtda tarbiyachi va otalar oldida turgan eng dolzarb muammolardan biridir.

Ertakning o'tkir, maroqli syujeti, voqea rivojidagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgulik kuchining – yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalar diqqatini o'ziga jalb etib, ularni rom qiladi [2].

K.D.Ushinskiy rus xalq ertaklarini xalq pedagogikasining birinchi yorqin namunalari deb atagan. U ertaklarga xalq pedagogikasi yodgorligi sifatida qoyil qolgan holda, xalqning pedagogik dahosi bilan hech kim bellasha olmasligini yozadi. Boshqa xalqlarning ertaklari haqida ham shunday deyish kerak [3].

Ertakning pedagogik vosita sifatidagi ma'nosini anglab, shuni tan olish kerakki, agar bolalarga bir xil axloqiy fazilatlarini kamida ming marta takrorlasak ham, bu ular uchun baribir tushunarsiz ya'ni, mano mazmuni anglanmagan bo'lib qoladi, lekin ularga xuddi shu fikrga singib ketgan ertak aytib bersangiz, bola bundan hayajonlanib, hayratga tushadi [4].

Ertaklarning qimmatini bolaning har bir jihatdan o'sishiga ta'sir ko'rsatishidir. Ertaklar bolaga jonajon ulka tabiatining kishilarning mehnati va hayotini, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklarini yoritib berishga xizmat qiladi. Kishilarning ichki dunyosini yoritib, ularning xarakterlari, his-tuyg'ulari, xatti-harakatlarini, shuningdek, tasvirlangan hodisalarga yozuvchining munosabatini ko'rsatib, badiiy adabiyot asarlari bolani hayajonlanishga, asar qahramonlariga achinishga yoki ularni qoralashga undaydi [5].

Ta'lim - tarbiya jarayonida ertakdan foydalanish orqali, bolaning salbiy xulq-atvorining namoyon bo'lishini tuzatishingiz mumkin. Ertak terapiyaning maqsadi:

- hissiy stressni olib tashlash;
- guruhda ishonchli o'yin muhitini yaratish;
- bolalar o'rtasida shaxslararo aloqalarni o'rnatish;
- bolaning o'ziga, o'z qobiliyatiga ishonch hissini rivojlantirish;
- tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish [6].

Ertak tinglab, bola sir va sarguzashtlarga to'la sehrli dunyoga sho'ng'iydi. Bu bolada ertak qahramoniga kuchli tuyg'uni shakllantirishga yordam beradi. Ertakterapiya bolalarni boshqa odamlar bilan muloqot qilishni o'rgatish, shuningdek nutqni, yuqori aqliy funktsiyalarni: fikrlash, xotira, tasavvurni rivojlantiradi [7]. Demak, ilmiy tahlillarda keltirilganidek ertaklarning bola tarbiyasida roli juda ham kuchli va samarali hisoblanar ekan, biz buni maktabgacha 6-7 yoshdagi bolalarning tayanch kompetensiyalariga qanaqa ta'sir qilish yo'llarini ham qarab chiqtiq.

Masalaning qo'yilishi



O'zbekiston Respublikasida Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat dasturi ishlab chiqilgan bo'lib unda maktabgacha 6-7 yoshdagi bolalarning tayanch kompetensiyalari quyidagicha keltirilgan:

- Kommunikativ
- Ijtimoiy
- Shaxsiy ("Men konsepsiyasini qurish")

Bu kompetensiyalarni bolalarda shakllantirishda albatta ertaklarning o'rni behiyos. Tarbiyachi ta'lim jarayonida, mashg'ulotda, kunning II-yarimida bolalarga ertak aytib berish, ular bilan savol – javoblar qilish, sahnalashtirish, har qil metodikalarda ularning tushunchalarini mustahkamlash, multimedia usulida ko'rsatish kabi ta'lim berish shakllarining hammasi ulardagi kompetensiyalarning rivojlanishiga turtki bo'ladi. Masalan:

Kommunikativ kompetensiya - ertaklarni bolalarga o'rgatish asosida bolalar o'z ona tilida so'z zahirasini to'playdi va bu so'zlarni insonlar bilan muloqat qilish borasida qo'llanadi. Atrofidagi insonlar bilan madaniyatli munosabat qilish ko'nikmasi shakllanadi, ahloqiy tarbiya normalariga ega bo'ladi. Shuningdek, bolalarda hikoya qilib berish qobiliyati rivojlanadi. Ertakdagi vaziyatlarni tahlil qilishi orqali ijtimoiy moslashuv amalga oshiriladi va kommunikativ rivojlanish yuzaga keladi. Natijada bola atrofidagi insonlar bilan oson muloqat qilish kabi kommunikativ kompetensiyaga ega bo'ladi.

Ijtimoiy kompetensiya – bunda bolalar ertakdagi tartib, odob ahloq qoidalarini o'z tafakkurida analiz, sintez qiladi va o'ziga shakllantiradi. Ertakdagi ijtimoiy holatlarni o'z ongida tasavvur qilishi bilan, kattalarni hurmat qilish, tengdoshlari ko'ngliga yo'l topishni, har xil vaziyatda insonlarga yordam berish quvonchiga va qayg'usiga sherik bo'lishni o'rganadi. Ertakdagi muammoli vaziyatlardan chiqish yo'llari ularni, hayotdagi muammolardan qanday chiqishga o'rgatadi. Shuningdek, katta insonlarning qanaqa majburiyatlari borligini tushunadi va bularning natijasida ijtimoiy ong shakllanib boradi.

Shaxsiy ("Men konsepsiyasini qurish") kompetensiya – bunda bolaning o'z shaxsini rivojlantirishi bo'lib, ertakdagi qahramonlarning o'z – o'zini himoya qilishi, maqsadi yo'lida turli xil muammolarni boshidan o'tkazishi va murod maqsadiga etishi kabi syujetlar bolalarda shu kompetensiyani shakllantiradi. 6-7 yoshli bolaning "Meni" ancha rivojlangan bo'lib, buni yanada ertaklar bilan to'ldirib turadi. Ertak qahramonlarining yaxshi xulq – atvorlarini o'zlariga singdiradi, insondagi yomon xislatlar nimaga olib kelishini tushunib etadi va ularni qaytalamaslikka intiladi. Ertak orqali o'z hayotiga ijodiy g'oyalar tuzadi va mustaqil qaror qabul qilishni o'rganadi.

Bilish kompetensiya – 6-7 yoshli bola ertak asosida har xil bilimlarni egallaydi. Masalan: tarixiy joylar, tabiat, fasllar, hayvonlar, o'simliklar haqida tushunchalarga ega bo'lishi bilan, so'zlarni to'g'ri aytish, hikoya qilish, hatto matematik tushunchalar keltirilgan ertaklardan o'zlariga bilimlar orttirib bilish kompetensiyasi rivojlanadi. Ertaklar asosida fantaziyasi rivojlanib kichkina kashfiyotlar yaratadi va tengdoshlari bilan o'rtoqlashadi va natijada ijodiy tafakkuri rivojlanib ijodkor shaxsga aylanadi.

Tadqiqotning metodologik asoslarini ko'rsatish

Maktabgacha 6-7 yoshdagi bolalarning tayanch kompetensiyalarini ertaklar asosida rivojlantirishda, tadqiqot mavzusiga mos bir qancha uslublarini tanladik. Masalan:

- ✓ Ertaklarni tanlash: Bunda bolaning 4 ta tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish uchun ertaklar tanlandi.
- ✓ Mashg'ulotlar shakli: Bolalar bilan ishlashda suhbatlar, rolli o'yinlar, ertak yaratish mashg'ulotlari faoliyat turlari tanlandi.

1 bosqich: Ertaklarni o'rgatish va tushuntirish

- Mashg'ulotlar oldidan bolalar uchun mos ertaklar tanlab olindi.
- Bu ertaklar bolalarning yosh xususiyatlariga mos va qiziqarli bo'lishiga alohida e'tibor qaratildi.
- Mashg'ulot davomida ertaklar bolalarga o'qib eshittirildi yoki qiziqarli tarzda hikoya qilib berildi.

Bolalar bilan ertakni muhokama qilish uchun maxsus savollar tayyorlandi, masalan:

- Ertak qahramonining xatti-harakati to'g'rimi?
- Agar siz qahramonning o'rnida bo'lsangiz, nima qilardingiz?



2 bosqich: Rolli o'yinlar va amaliy mashg'ulotlar

➤ Bolalar rolli o'yinlarda qatnashib, o'zlari bir – birlariga ertak qahramonlari rolini o'ynashga taklif qilishdi. Bu orqali ular muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishdi.

3 bosqich: Ijodiy topshiriqlar

- Mashg'ulot davomida bolalarga yangi ertak yaratish vazifasi topshirildi.
- Ular o'z qahramonlarini o'ylab topib, yangi ertak tuzishga harakat qilishdi.

4 bosqich: Kuzatish va baholash

- Bolalarning faoliyati davomida kuzatishlar olib borildi: kim qanday qatnashdi, qaysi bolalar faol, qaysi bolalar biroz tortinishdi va tarbiyachi tomonidan rag'batlantirildi.
- Mashg'ulot oxirida bolalarning fikrlarini tinglash va ularni baholash uchun savollar berildi:
- ✓ Ushbu ertak orqali siz nimani o'rgandingiz?
- ✓ Ertak qahramonlarning qaysi xatti-harakatlarini yoqtirdingiz?

Tanlangan usullarning afzalliklarini shunнан iboratki ertaklar orqali o'yin shaklida ishlash bolalarni qiziqitirdi va o'z fikrlarini ochiq ifodalashga yordam berdi. Qahramonlar rolini o'ynash orqali bolalar nafaqat ertakni yaxshi tushunib qolmasdan, balki o'z xulq-atvorlarini ham tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Natijalar va namunalari

O'tkazilgan mashg'ulotlarda 6-7 yoshli bolalarning tayanch kompetensiyalarini ertaklar asosida rivojlantirish o'z samarasini berdi. Ushbu mashg'ulotlar nafaqat bolalarning rolli o'yinlar o'ynash va tinglashga bo'lgan qiziqishini oshirib qo'ymasdan, balki ularning muloqot qilish ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini va axloqiy qadriyatlarni anglash, shaxsiy sifatlarini, bilim egallashga bo'lgan darajasini ham rivojlantirdi.

Tarbiyachi yordamida bolalar bilan ishlash davomida olib borilgan kuzatuvlar natijalarni aniqroq baholash imkonini berdi.

Bosqich	Faoliyat turi	Natija
1-bosqich	Ertakni tinglash va muhokama qilish	Bolalar ertakning mazmunini tushundi, qaysi ertakni o'ynashni muhokama qildi
2-bosqich	Rolli o'yinlar	Bolalar o'zlari qahramonlar obrazini ishtirok etdi, fikrlari ochialandi
3-bosqich	Yangi ertak yaratish	Bolalarning ijodiy fikrlashi va nutq ko'nikmalari rivoilandi

1-rasm. Kompetentli bolani shakllantirish bosqichlari
Muhokama va o'yin jarayonlari:



Masalan, "Tulki va xo'roz" ertagini tinglash davomida bolalar ertakdagi voqealar va qahramonlarning xatti-harakatlarini muhokama qilishdi. Mashg'ulot davomida ularga "Siz tulkining o'rnida bo'lsangiz, nima qilgan bo'lardingiz?" yoki "Tulki qanday qilib yaxshiroq do'st bo'lishi mumkin edi?" kabi savollar berildi. Bu usul bolalarni voqealarni chuqurroq tushunishga undadi va ular o'z fikrlarini erkin ifodalash imkoniga ega bo'lishdi. Ko'pchilik bolalar muloqotda do'stlik, hurmat va samimiyatning ahamiyatini o'z so'zlari bilan tushuntirib bera oldi.

Ijodiy faoliyat va qahramonlar yaratish:

Ertak asosida o'yin shaklidagi topshiriqlar tashkil etildi. Bolalar guruhlariga bo'linib, ertak davomida o'zlari xohlagan qahramonni yaratish va unga yangi syujet tuzish vazifasini bajardilar. Bu jarayonda 15 nafar bola ichidan 10 nafari o'z qahramonlariga nom berish va ularning xarakterini belgilashni muvaffaqiyatli amalga oshirdi. Masalan, bir bola "Jasur xo'roz" nomli qahramonni o'ylab topib, uning do'stlariga yordam berish uchun qanday qahramonliklar qilganini tasvirlab berdi. Yana bir bola esa "Yaxshi niyatli tulki" haqida ertak yaratdi va uning xatti-harakatlari orqali atrofdagilarni sevgi va samimiyat bilan munosabatda bo'lishga chaqirdi.

Bolalarning rivojlanish ko'rsatkichlari:

- ✚ So'z boyligi oshdi: Mashg'ulotlardan oldin bolalar bir so'z yoki oddiy jumlar bilan javob qaytargan bo'lsa, mashg'ulotlardan keyin ular o'z fikrlarini ravon va batafsil ifodalashga o'rgandilar. Masalan, bir bola "Quyon tez va qo'rqqoq edi," deyish o'rniga, "Quyon avval qo'rqib ketdi, lekin keyin do'stlarini qutqarish uchun jasorat ko'rsatdi" kabi murakkabroq jumalarni qo'llay boshladi.
- ✚ Ijodiy tasavvurlar rivojlandi: Bolalar o'z qahramonlariga nafaqat nom berdi, balki ularning xatti-harakatlarini, qayerda yashashi, ovozi tasvirlashga urindilar. Bu esa bolalarning ijodiy tasavvurlarining rivojlanganligini ko'rsatdi.
- ✚ Jamoaviy ko'nikmalar shakllandi: Guruhli o'yinlarda bolalarning bir-birlari bilan muloqot qilishi, o'z g'oyalarini himoya qilish va boshqalarning fikrini tinglash kabi ko'nikmalarni rivojlandi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, 6-7 yoshli bolalarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda ertaklarning o'zni behiyos ekan. Sababi, bola ertak orqali nafaqat dunyoviy bilimlar olib qo'ymasdan, ijtimoiy ong shakllanib boradi, jamiyatga moslashish kabi dastlabki ko'nikmalar paydo bo'ladi. O'z xulq atvorini tuzatadi, shaxsiy ijobiy sifatlarga ega bo'ladi. Kattalar va tengdoshlari bilan madaniyatli muloqot qilish, axloqiy normalarga rioya qilishni o'rganadi. Bilishga degan qiziquvchanligi yana ham ortib bilimlari kengayadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 6-7 yoshli bolalarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirishda tarbiyachilarga yuqorida keltirilgan usullarda mashg'ulotlar olib borish samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Познавательные сказки для детей 4-7 лет. Методическое пособие/ Сост. Л.Н. Вахрушева. – М.: ТЦ Сфера, 2011. – 80 с
2. Jumayev R.X. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda ertaklar o'zni. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2024 йил № 2) 118-В.
3. Ушинский К.Д. Детский мир и хрестоматия. Санкт Петербург 1861 г 52с
4. Qurbonova S.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlanishida ertaklarning o'zni. Ilmiy tadqiqot va jamiyat muammolari. Vol. 6 No. 2 (2024).39 b. <https://wordlyknowledge.uz>
5. Kubayeva M.B. Maktabgacha yoshdagi bolalarni mnemotexnika asosida ertaklar bilan tanishtirish. International Conference on Developments in Education. Hosted from Delhi, India <https://econferencezone.org>. 24th May, 2023
6. Hikmatullayeva G.A. Ertakterapiya psixoterapevtik va diagnostika ishlarining maxsus usuli sifatida. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH International scientific-online conference Part 11: JANUARY 9th 2023.



7. Ravshanova S. B. Alohida yordamga muhtoj bolalar bilan ertakterapiya usuli sifatida. "INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE" BELARUS, International scientific-online conference. Part 9 December 19th collections of scientific works MINSK-2022.
8. «Ilk qadam» Davlat o'quv dasturi (takomillashtirilgan 2-nashr) Tosh-2022. 16 b.
9. "Ilm yo'li" variativ dastur. (6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash), T.:2018.
10. Pedagogika ensiklopediya. I jild / tuzuvchilar: jamoa. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2015, 320-b.